

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:19 (67184)
2018-yil 7-may

www.tongyulduzi.uz
ISSN – 2010-6092

«Yer yuzida juda kamdan kam davlat va millat bunday yuksak insoniy fazilatlar bilan g'ururlanishi mumkin. Vaqt o'tgan sari Shomahmudovlar oilasi ko'rsatgan bu qahramonlikning ahamiyati va qadri tobora oshib bormoqda».

Shavkat MIRZIYOYEV

Inson qadri –
ulug',
xotira –
muqaddas!



MEHRGA QO'YILGAN HAYKAL

Mening do'stim – aziz gazetxon! Siz Mehrga qo'yilgan haykal haqida eshitganmisiz? Mehr – avlodlarni, yuraklarni bir-biriga bog'lovchi rishta. U bor joyda xotirjamlik barqaror bo'ladi. Qiyinchiliklarni yengib o'tish osonlashadi.

Tarixga nazar solamiz. Bugungi tinch-osuda hayotimiz uchun kurashganlarni yodga olamiz. Ikkinchi jahon urushining asoratlari o'chmas dog' qoldirdi: minglab kishilar hayotdan ko'z yumdi, mayib-majruh bo'ldi, yetim qoldi. Ko'pchilik o'z tug'ilgan diyoridan ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Ularning aksariyati bolalar edi. Vagonlarda yurtimizga keltirilgan murg'ak go'daklarning ko'zlariga qo'rquv, bezovtalik muhrlangandi.

Minglab masofa uzoqlarda bo'lsa-da, yurtida shunday yonginasidagi portlashning vahimasi quloqlariga o'rnashib qolgandi. Norasidalar har nigohdan panoh – mehr istardi. Shunday og'ir sharoitda xalqimiz turli millat bolalarini o'z qanotiga oldi. Ota-onalik mehrini berdi. Uylarining to'ridan ularga joy to'shadi.

(Davomi 3-betda)



Mardlik, burch va sadoqat.

Ikkinchi jahon urushi ko'plab davlatlarga talafot keltirdi. Millionlab insonlarning halok bo'lgani, yana necha ming askarlarning bedarak yo'qolgani yosh-u qarini birdek qayg'uga soldi.

«G'ALABA – BARCHA UCHUN BITTA»

avtokarvoni Toshkentga yetib keldi

«Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan Rossiyaning Nijnevartovsk shahridan ko'hna Samarqandgacha «G'alaba – barcha uchun bitta» shiori ostida avtokarvon yo'lga chiqdi. 1930–1943-yillarda ishlab chiqarilgan 5 ta «Pobeda» rusumli mashinadan tarkib topgan karvon qatnashchilari kuni kecha Toshkentdagi «Birodarlar qabri» majmuasida tantanali kutib olindi.

Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston hududlaridan o'tgan avtokarvon ishtirokchilari sayohat davomida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va yoshlar bilan suhbatda bo'ldi. Keksalar bilan bo'lgan muloqot urush davrining suronli yillari haqida kechdi. Shuningdek, avtokarvon ishtirokchilari Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan memoriallar poyiga gullar qo'yishdi.

O'z muxbirimiz



OTAM YONIMDA BO'LMASA-DA, O'GITLARI HAMISHA YODIMDA. – deydi tengdoshingiz Iskandar Isroilov.

– Maktabimiz harbiylashtirilgani bois ustozlarimiz davomat va dars vaqtida ism-sharifimizni to'liq aytishadi. Menga esa Isroilov Iskandar Ilyos o'g'li deb murojaat qilishganida, doim otamni eslayman. Bugun yonimda dadam bo'lmasalarda, ularning o'gitlari, maslahatlari qulog'im ostida jaranglayveradi...

Zehnli, ammo biroq ma'vus nigohli tengdoshingiz bilan suhbatimizni uning otasi xotirasiga bag'ishladik. Zero, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining harbiylashtirilgan maxsus maktab internati 4-vzvod, 8-«B» sinf kursanti Iskandarbekning hayotdagi eng katta orzu-maqasadi dadasiga munosib bo'lmoqlikdir.

Otasi Ilyos aka Isroilov O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida yigirma yildan ortiq fidokorona xizmat qilgan ekan. O'z kasbini sevgan va hamisha yurtdoshlarining be-xatar, osoyishta yashashlari yo'lida mehnat qilib, xizmat burchini ado etish vaqtida halok bo'lgan otaning o'g'li bugun uning izidan bordi. Iskandar maxsus maktabning a'lochi va faol o'quvchisi, onasi Dilfuza opa Isroilovning ishongan tog'i. U bir necha fanlardan «Bilimlar bellashuvi»da faol ishtirok etgan. Zero, uning dadasi ta'kidlaganidek, inson avvalo, bilimli, ma'naviyatli bo'lmo'g'i zarur. Tabiatan ta'sirchan va og'ir-bosiq suhbatdoshimiz kitob mutolaa qilishni yaxshi

ko'radi, sportning bir necha turi bilan muntazam shug'ullanadi. Ustozi Zilola opa Salimovaning ishonchini oqlashga harakat qiladi.

Bugun u shunday nufuzli, ko'pchilik tengdoshlari havas



Iskandar maktab direktori, podpolkovnik Adham Dadaboyevni o'z otasidek ko'radi.

qiladigan, barcha shart-sharoitlar yaratilgan ta'lim maskanida tahsil olmoqda. Qolaversa, dadasining xizmatlari uchun hukumatimiz tomonidan berilgan ko'rkam va zamonaviy xonadonda o'z oilasi bilan tinch va osoyishta yashayotgan o'g'lon jonajon Vatani bag'rida ota mehrini his etayotgan bo'lsa, ajabmas.

Sayyora QODIROVA

OLTIARIQLIK GENERAL

Oltin kuz fasllar ichida saxiyliги bilan ajralib turadi, bu paytda dalalar va bog'larda noz-ne'matlar g'araq pishib yetiladi. Ana shunday farahbaxsh kunlarning birida oltiariqlik kosib Abdulla akaning xonadonida ko'zlari munchoqdek o'g'il dunyoga keldi. Unga yaxshi niyat bilan Tilla deb ism qo'ydilar.

Xonadon sohibasi Roziya opa bolalar bog'chasida tarbiyachi, maktabda o'qituvchi bo'lib ishlardi. Kamtarin bu ayolni tumandagi katta-yu kichik hurmat qilar, hamma izzatini joyiga qo'yardi. To'qson yil umr ko'rib, dunyodan o'tgan onaxon o'zidagi oliyanob fazilatlarini farzandiga singdirdi. 7-sinfni bitirgan Tilla Qo'qon neft bilim yurtiga o'qishga kirdi. U o'n to'qqiz yoshga to'lganda, urush boshlanib qoldi.

1941-yilning oxirida Vatani himoyasiga otlangan bir guruh yigitlarni Toshkent maktabining olti oylik kursiga yo'llashdi. Ular orasida Tilla Abdullayev ham bor edi. O'qishni bitirgach, u davlat xavfsizligi leytenanti unvoni bilan Stalingrad frontiga jo'nab ketdi. Bu yerda 116-Sibir o'qchilar diviziyasida xizmat qila boshladi.

Maxsus bo'limda razvedkachi bo'lib faoliyat

jang bilan Ukraina, Polsha, Germaniya, Chexoslovakiya, Ruminiya hududlaridan



o'tib borardi. Yosh ofitser ko'p marta o'lim bilan yuzma-yuz keldi. Masalan, Dnepri kechib o'tish paytida unga daryoning o'ng qirg'og'idagi Kremenchug yaqiniga borib, razvedka qilib kelish vazifasi topshirildi. Tilla Abdullayev qurol-dosh do'stlari bilan o'qlar yog'ilib turgan daryoning narigi betiga qayiqda suzib o'tdi.

Tilla akaning hayotida ro'y bergan bunday voqealarni ko'plab keltirish mumkin. Faxriydan o'sha alangali yillar haqida gapirib berishni iltimos qilishganda, ko'z oldidan urush lavhalari o'ta boshlaydi.

...Xonadonlardan birida dushman bilan otishma borardi. Zinadan ohista ko'tarilayotgan Tilla Abdullayev yuqorida nemis ofitseri unga to'pponchani to'g'rilab, tepkisini bosganiga ko'zi tushib qoldi. O'qi qolmagan to'pponcha otilmadi. Shunda fashist yigitga qilich bilan hamla qildi. Ammo oltiariqlik shovvoz uni zararsizlantirishga muvaffaq bo'ldi.

– Devorga osig'liq turgan qilichni ko'ryapsizlarmi? – deydi Tilla aka ushbu voqeani jon qulog'i bilan tinglayotgan mehmonlarga. – U ana shu olishuvdan yodgorlik. Yana bir esdan chiqmaydigan voqea bu otam bilan frontda uchrashganimiz, – Tilla akaning

chehrasi quvonchdan yorishadi. – O'sha kezlari urush tugagan va biz g'alaba bilan yurtimizga qaytayotgan edik. Askarlar Polshaning Poznan shahrida to'xtadi. Men otam qayerdadir o'qchi bo'lib jang qilayotganini bilardim. Kutilmaganda, Germaniyadan, ya'ni u kishidan xat oldim. Otam o'zi xizmat qilayotgan garnizon bizdan 700 chaqirim

narida ekanligini yozgan edilar. Shu kuniyog' javob so'rab, yo'lovchi mashinada bir kecha-kunduz deganda otamning yoniga yetib oldim.

Tilla Abdullayevning frontdagi rahbari toshkentlik Viktor Belevsev bo'lib, urushdan so'ng ichki ishlar idoralarida faoliyat ko'rsatayotgan edi. Aynan u Turkiston harbiy okrugi-da xizmat qilayotgan Tilla akaga militsiyaga ishga o'tishni taklif etdi.

Dastlab, 1948-yili militsiya kapitani unvoni bilan Farg'ona tumani militsiyasini boshqardi. Keyinchalik Farg'ona shahar IIB boshlig'i etib tayinlandi.

Urushdan keyingi og'ir damlar. Ochlik azobi. Yupunlik, buning ustiga, tobora «bolalayotgan» jinoyatlardan odamlar bezillab qolgan. Lekin har qancha qiyin bo'lmasin, sobiq frontchi zimmasidagi vazifalarni sharafla bilan uddaladi. U o'n yil davomida Surxondaryo viloyati IIBga rahbarlik qildi. Keyingi o'n yillik xizmati Samarqandda o'tdi.

Marhum general-mayor Tilla aka Abdullayev Ikkinchi jahon urushi va keyingi davrdagi xizmatlari hukumatning ikkita ordeni, o'nlab medallar, faxriy yorliqlar hamda boshqa mukofotlar bilan munosib taqdirlangan.

Murod TILLAYEV

(Davomi. Boshi 1-betda)

Ta'til kunlarining birida dugonalarim bilan bobomning bog'iga bordik. Biz u yerda bir-biridan shirin mevalarni mazza qilib yedik.

BOBOM ZO'R BOG'BON



O'sha onda dunyoda bobomdan zo'r bog'bon bo'lmasa kerak, deb o'yladim. Dugonalarim ham bu fikrimga qo'shilishdi. Qolaversa, biz bog'da o'qigan kitoblarimiz haqida so'zlashdik, turli xil hangomalarni aytib, miriqib hordiq chiqardik. Shu payt yangamning, «Tushlikka kelinglar», degan ovozi eshitildi. Hammamiz birga o'tirib tushlik qildik.

So'ng, jiyanim Bahrom qayerdandir qalin arqon topib keldi va daraxtga bog'lab, arg'imchoq yasadi. Barchamiz galma-galdan arg'imchoq uchdik. Bobom bir taqsimcha o'rik va gilos olib kelib:

– Olinglar, nevaramning mehmonlari, – deb yonimizga qo'ydi. Oqshom tushib, qizlar uylari tomon tarqaldilar.

Bobom: – Dugonalarim aqlli, odobli qizlar ekan, – deb maqtadilar. Men esa bugungi quvnoq, mazmunli kun uchun ularga tashakkur aytdim. Tinchlikda, xotirjamlikda o'tayotgan kunimga shukur qildim.

Maftuna MURODOVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi
43-IDUMning 7-sinf o'quvchisi

MOMO SANDIG'IDAGI HIKMATLAR

Mahallamizda 80 yoshni qarshilagan Xursandoy opa Bayzakovani biz bolalar «Momo» deya suyamiz. Ularning xonadonlariga tez-tez borib turamiz.

Suhbat jarayonida hali biron manbada chop etilmagan, ohori to'kilmagan oilaviy totuvlik, do'st-birodarlik haqidagi ajoyib maqollarni miriqib tinglaymiz. Momoning xuddi hikmat to'la sandiqlari borga o'xshaydi. Ana shu ko'ngil sandiqlarida saqlanib kelayotgan tillo-durlardan sizlarni ham bahramand etishni istadim...

O'yib yesang – o'n kun yeysan,
Qirib yesang – qirq kun yeysan.

Bu purma'no so'zlar orqali ne'matlardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik zarurligini uqishimiz mumkin.

Momomning yana bir hikmatlariga e'tibor bering:

Sen siylasang qaringni,
Qaring siylar – baringni.

Bu «Qarisi bor uyning – parisi bor» degan maqolimizga yondosh bo'lib, biz doimo keksalarni hurmat qilib, qadrlashimiz kerakligini yana bir bor eslatadi.

Men yoshlarni hamisha ezgulikka, to'g'ri yo'lga chorlovchi yoshi ulug' insonlarni qadrlab yashashimizni istayman. Zero, yurtimizda bejizga xotira va qadrlash kunidek beqiyos bayramlar nishonlanmaydi.

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
27-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

MEHRGA QO'YILGAN HAYKAL

Toshkentlik Shoahmad Shomahmudovlar oilasi qarovsiz qolgan 14 nafar farzandni o'z bolalaridan a'lo ko'rdi. Avaylab asrashdi, ulg'aytirishdi. Bu insoniylikning yovuzlik ustidan tantanasi bo'ldi. Ertangi kunga ishonch, umidning shu'lasi nurlandi. Nonga to'yish orzu bo'lgan davrda bu himmat qahramonlikdan ziyoda edi. Olovning tafti qo'liga, chehrasiga va vujudiga singib ketgan edi Shoahmad otaning.

Temirchi Shoahmad ota va uning rafiqasi Bahri aya matonati o'zbekning bir qiyofasi edi, xolos. Ular haqida yozuvchi Rahmat Fayziy «Hazrati inson» nomli asar yozdi. G'afur G'ulom esa «Sen yetim emassan» she'rini bitdi. Rejissor Shuhrat Abbosov shu nomda hammamiz yaxshi ko'radigan kinofilim yaratdi. Filmni qayta-qayta tomosha qilamiz.

Lahzalik holat – bolalar o'zini tanishtirganda, har birimiz shu xalqning vakili ekanimizdan iftixor tuyamiz: – Nina Mahkamova, Olga Mahkamova, Taras Mahkamov, Sersenbay Mahkamov...



Dilfuza SHOMALIKOVA

AVJ PARDADA UZILGAN TOR

Suratdagi bolakayning ismi Firdavs edi. U ham barcha tengdoshlari kabi sho'x, o'yinqaroq edi. Ota-onasi quchog'ida, aka-opasi ardog'ida beg'am, betashvish ulg'ayayotgandi. Yong'in xavfsizligi Oliy maktabida tahsil olgan akasining harbiycha kiyimlarini kiyib ko'rishni yaxshi ko'rardi. Yaqinlarining xotirlashicha, u o'ta zehni, noyob qobiliyatli bola edi. Ikki yoshida onasi yod oldirgan to'rt sahifalik rivoyatni yoddan aytib, hammaning hayratini oshirardi. Yaratgan buyumlari, g'oyalari kattalarning ham aqli bovar qilmasdi. Mittigina qalbi orzularga limmo-lim edi... Afsus, avj pardada uzilgan tor misoli beshafqat o'lim uni ota-onasi, yaqinlari bag'ridan erta yulib ketdi. Tengdoshlari qatoridan xato bo'ldi. Sinfdagi sindfoshlari, ustozlari qalbidagi o'rni bo'shab qoldi...

Xotira va qadrlash kuni bayrami arafasida tahririyatimizga qo'lida kitob ko'targan onaxon kirib keldi. Kitobcha Firdavsning qisqa, ammo mazmunli hayot yo'lga bag'ishlangan ekan. Maktabdagi a'lo baholari, namunali xulqi, oromgoh tadbirlaridagi faol ishtiroki uchun olgan tashakkurnoma, faxriy yorliqlari, oilasi a'zolari bilan esdalik uchun tushgan suratlar, yozgan she'rlari o'r in egallagan edi kitobchadan. Firdavsning o'zi haqida yozgan

ushbu ma'lumoti e'tiborimizni tortdi: «... Men Sayfiyev Firdavs 2005-yil 18-iyunda tug'ilganman. Hozir 11 yoshdaman. 2017-yil



muchalim bo'ladi. Samarqand shahridagi 1-umumta'lim maktabining 6-sinfida o'qiyman. Matematika, ingliz tili, fizika fanlariga qiziqaman. Yaqin do'stlarim – Shahzod, Qodir, Azim, Azamat, Diyor, Behzod, Jahongir, Lochin, Orifxon. Mening birinchi ustozim Shoira Shomurodova. Hozirgi kunda sinf rahbarim Nargiza Ibragimova. Menga bilim berayotgan barcha ustozlarimdan minnatdorman...»

Firdavs ushbu matnini nima maqsadda qoralaganini bizga qorong'u. Balki u nomlarini sanab o'tgan do'stlariga, sen eng

yaqin do'stimsan, demagandir, ustozlariga ham minnatdorligini aytolmagandir?! Balki bu dil so'zlarini biror bolalar nashri orqali o'qituvchilariga, sindfoshlariga yetkazmoqchi bo'lgandir?! Nima bo'lganda ham endi Firdavsda bunday imkoniyat yo'q. Shu bois, uning bolalarcha soddalik, samimiyatga yo'g'rilgan ushbu matnini va quyidagi she'rlarini «Tong yulduzi» gazetasi orqali sindfoshlari, ustozlari e'tiboriga havola qilishni lozim topdik. Shoyad, Firdavsjonning ruhi shod bo'lsa.

VATAN

Eng go'zal tilaklarim,
Senga Vatan, onajon.
Tingla, jajji o'g'lingman,
Qalbm to'la hayajon.

ONAJONIM

Tunlari bedor qaragan,
Oq yuvib, oq taragan.
Farishtam – onajonim,
Yolg'izim, mehribonim.

Dunyoga keltirdingiz,
Bizga mehr berdingiz.
Rahmat sizga, onajon,
Mehribonim, jonajon.

Feruza JALILOVA

Yurti tinchning
eli tinch.

Tong
yulduzi

SHUKRONA



Shu kunlarda Mang'it qishlog'ida yashovchi, Ikkinchi jahon urushi va mehnat faxriysi Abdurahim ota Qovunchiyev xonadoni ko'plab o'quvchilar, mahalla ahli bilan gavjum.

Bu yil 96 yoshni qarshilaydigan otaxon bolalarga o'tmish xotiralarini so'zlab berishdan charchamaydi. O'quvchilar esa boboning medal va ordenlariga havas bilan boqishadi.

– Bolajonlarim, sizlar shunday hur zamonda yashayapsizlar, yaxshi o'qib, davlatimiz nomini ko'klarga ko'taringlar, – deya tilak bildirgan Abdurahim ota barchani duo qiladi.

**Ibrohimjon ABDULLAYEV,
Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi
35-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

60 NABIRANING BOBOSI

1923-yil Beruniy tumanida tug'ilgan Quronboy Qurboniyazovning bolalik yillari Ikkinchi jahon urushidan avvalgi og'ir yillarga to'g'ri keldi.

«U vaqtlarda qishloqdan olisda bo'lgan maktabga qatnashning o'zi bo'lmagan», deya hikoya qiladi otaxon. Zamon og'ir bo'lgani uchun ular ro'zg'or yumushlarida, temirchilik ustaxonasida otasiga ko'maklasha boshlagan. 18 yoshga to'lganida urush boshlanib,

askarlikka safarbar qilingan. Urushda esa oyoqlaridan ayrilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, «Jasorat» medali va turli ordenlar bilan taqdirlangan Quronboy bobo shu kungacha el ardog'i va davlatimiz g'amxo'rlikidan mamnun holda hayot kechirmoqda. Prezidentimiz Farmoni bilan ularning uylari ta'mirdan chiqarilib, nogironlar aravachasi topshirilgan. Bugun otaning 5 nafar farzandi, 60 ta nabirasi-yu 24 chevara, 8 ta evarasi bor.



**Sarvinoz TULIYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l akademik litseyi 2-bosqich o'quvchisi**

OILA – TA'LIM MUASSASASI – MAHALLA HAMKORLIGI

Angren shahridagi 39-umumta'lim maktabida «Maktab – mahalla – oila hamkorligi» doirasida Angren shahar deputatlar Kengashi deputati Sh. Mirzakarimov, «Yangi Jigariston» MFY raisi Sh. Qoraboyev, G'afur G'ulom nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi G. Zokirova, uchastka noziri R. Hazratqulov ishtirokida ota-onalar yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ota-onalar va maktab hamkorligi, ta'lim maskanidagi mavjud muammolar tanqidiy ruhda o'rganilib, bu bo'yicha mas'ul shaxslarga chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Qolaversa, umumta'lim maktabida xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish, yangi maktab binosini qurish, o'quvchilarning maktabga qatnashida transport vositalari xizmati sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar berildi.

– Muammolarga qaramasdan, barcha kuchni farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga qaratish lozim. Bugun ularning tarbiyasi bilan

shug'ullanmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin, – deydi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Sherzod Mirzakarimov.

Shuningdek, bo'lim mudiri o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha qo'shimcha takliflar kiritdi. Darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Bu kabi tadbirlar Angren shahridagi barcha umumta'lim maktablarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

F. ABDUSAMAD qizi

Vaksinaning foydasini bilasizmi?

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, immunizatsiya (organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyati) tufayli har yili dunyo bo'ylab ikki-uch million kishining hayoti saqlab qolinadi.

Ammo ayrim tushunmovchiliklar, internet tarmog'ida tarqalayotgan yolg'on xabarlar tufayli ba'zi insonlar orasida vaktsinalarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati paydo bo'lgan.

Kuni kecha «Poytaxt» biznes markazida UNICEF xalqaro bolalar tashkiloti tomonidan «Emlash bo'yicha aksiltashviqotga qarshi kurashishda OAV roli» mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda Ispaniyaning Santyago universiteti fan doktori, malakali shifokor Federiko Martinon-Torres ma'ruza qildi. U emlash orqali ko'plab xavfli kasalliklarning oldini olish mumkinligi, ammo keyingi vaqtlarda mazkur ishga qarshi butun dunyoda aks targ'ibot ishlari olib borilayotgani xususida kuyinib gapirdi.

– Bola hayoti va salomatligini himoyalashda eng samarali va xavfsiz usullardan biri bu emlashdir, – dedi doktor Federiko Martinon-Torres. – O'zbekistonda bolalarning turli kasalliklarga qarshi emlanishiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani bizni quvontiradi. Afsuski, ayrim insonlar farzandlari sog'lig'iga e'tibor bermay, vaktsinatsiya qabul qilishni rad etadi. Ular bu orqali nafaqat o'z farzandi sog'lig'iga, balki atrofda yolg'on xavf tug'diradi.

– Bugungi kunda har bir bolani o'z vaqtida

emlatish, mahalliy mutaxassislar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda, – deydi UNICEFning immunizatsiya masalalari bo'yicha



maslahatchisi Nargiza Fuzaylova. – Buning samarasi o'laroq, o'tgan yillar davomida yurtimizda ayrim ijtimoiy xavfli kasalliklar butunlay bartaraf etildi.

Ota-onalar farzandini emlatganda, kutilishi tabiiy bo'lgan turli ta'sirlardan xavotirga tushmasligi, bu harakat eng avvalo, farzandi sog'lig'i va kelajagini himoyalashga qo'yilgan qadam ekanligini yodda tutishi zarur.

Nodira NAZAROVA

SIZ DOIMO QALBIMIZDASIZ

Sarlavhani o'qishingiz bilan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovni yodga olgan bo'lsangiz, ajabmas. Islom boboning nomi chindan ham o'zbek xalqining yuragida mangu muhrlangan.

Kuni kecha tuman «Barkamol avlod» bolalar markazida u kishining xotirasiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. O'quvchilar she'r va qo'shiqlar orqali bobomizga bo'lgan cheksiz muhabbatini izhor etishdi. Xuddi ular orzu qilgandek barkamol avlod bo'lib yetishishga va'da berdi.

**Dilshodbek RAHMATILLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**

FAQAT OLG'A, «QALQON»!

April oyining boshida Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 3-BMSMd «Huquq bilimdonlari» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Bellashuvda 7 ta umumta'lim maktabi jamoasi o'zaro bellashdi. Ishtirokchilarning barcha shartlar bo'yicha chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan odilona baholab borildi. Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, 3-o'rinni 33-umumta'lim maktabining «Kelajak bunyodkorlari», 2-o'rinni 29-umumta'lim maktabining «Adolat» jamoasi egalladi. Bizning «Qalqon» jamoamiz esa 1-o'rinni qo'lga kiritib, tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

Tadbir so'ngida g'olib jamoalar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**Zulayho KARIMOVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
8-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

ADIB O'QIQIGAN MAKTAB

Farg'ona viloyatida Katta Tagob qishlog'i bor. Bu qutlug' go'shada bolajonlarning sevimli adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev tug'ilib o'sgan. «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha», «Shirin qovunlar mamlakati», «Sehrli qalpoqcha» asarlari bilan kitobxonlar qalbini zabt etgan yozuvchining adabiyotga bo'lgan ixlosi o'quvchilik yillaridayoq uyg'ongan. Bugun poytaxtda yashab, ijod qilayotgan adib bolaligi kechgan qishloqni, sevimli maktabini tez-tez yo'qlab turadi.

U o'qigan maktab endilikda zamonaviy qiyo-fa kasb etgan. Xudoyberdi To'xtaboyev har gal 37-umumta'lim maktabiga tashrif buyurganida, ta'lim maskani kutubxonasiga ko'plab kitoblar sovg'a qiladi. O'tgan yili adibning sakson besh yilligi maktabda keng nishonlandi. Yozuvchi bilan bo'lgan uchrashuv o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

– Qishloqqa qachon borsam, birinchi galda maktabga oshiqaman. Ma'rufjon degan bama'ni yigit direktor bo'lgan. Otasiga rahmat, uning talabchanligidan bilim dargohida ta'lim-tarbiya ishlari namunali darajada, – deydi Xudoyberdi bobo.

Maktab o'quvchilarining erishayotgan yutuqlari maqtasa arzigulik. 7-«B» sinf o'quvchisi Hamidaxon Qodirova «Bilimlar bellashuvi»da geografiya fanidan viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, o'tgan o'quv yilida 7-«B» sinf o'quvchisi Behruz Hasanov geografiya fanidan «Bilimlar

bellashuvi»ning tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Yaqinda fan olimpiadasining tuman bosqichida 9-«A» sinf o'quvchisi M. Abdurasulova ona tili fanidan g'olib bo'lib, viloyatda ham tuman sha'nini munosib himoya qildi.

Quvonarlisi, o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichi bo'yicha ta'lim maskani tumanda 1-o'rinda turadi.

Sottixon Homidov va Sharifjon Izbosarov singari mohir murabbiylar qo'l ostida o'quvchilar sportda ham qator g'alabalarni qo'lga kiritmoqda. Jumladan, 9-«A» sinf o'quvchisi Shohjahon Oppoxonov yengil atletika bo'yicha «Umid nihollari» sport musobaqasining respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan. Yunon-rum kurashi bo'yicha R. Rashidov, D. Ashurov, D. Najmiddinov, S. Nasvaliyev, J. Otajonov-



lar mazkur musobaqaning viloyat bosqichida 1-o'ringa sazovor bo'ldi. 5-«A» sinf o'quvchisi Shahrizoda Otajonova, 9-«B» sinf o'quvchisi Nigina Muxtorovalar badiiy gimnastika bo'yicha Respublika kubogini qo'lga kiritdi.

Xullas, el suygan adib Xudoyberdi To'xtaboyev o'qigan maktab yutuqlari haqida yana uzoq gapirish mumkin. O'quvchilar esa sevimli yozuvchilari bilan bo'ladigan navbatdagi uchrashuvga qiziqarli maktab yangiliklaridan tayyorlab qo'yishgan.

O'z muxbirimiz

Lesson 19

MY GRANDIOSE POET AMONG THE GREATEST



Muhammad Yusuf is a famous poet of Uzbek nation. His poems are very simple to understand and very easy to read. We can listen to his poems by singers' songs. His poems teach us true love, respect to parents, and understand the nature with the tender feelings, to love Motherland.

I am a member of Muhammad Yusuf circle which was organized in our region. We know that Muhammad Yusuf was born in Marhamat. But his poems are popular not only in his Motherland but also around Uzbekistan. We read his famous poems «Ulug'imsan, Vatanim!», «Xalq bo'l, elim». In circle we learn poet's poems, his life and works. We try to be follower to Muhammad Yusuf. Last week we visited with our teacher to the village where Muhammad Yusuf lived. We saw poet's school, house that he lived in his childhood. Also we visited his grave and met there red tulips which poet loved all his life. Our duty is to learn and read his poems with great inheritance. The poems of poet will forever in our soul. We are proud of being fellow – countrymen with Muhammad Yusuf.

Mavludakhon MO'YDINOVA,
the pupil of school № 16 in Marhamat district Andijan region

WORD GAME

Read the words and tick the part of speech.



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

| Word | Noun | Verb | Adjective | Adverb |
|------------|------|------|-----------|--------|
| Sacrifice | * | | | |
| Appreciate | | | | |
| Ancient | | | | |
| Caught | | | | |
| Remember | | | | |
| Honor | | | | |
| Heroes | | | | |
| Service | | | | |
| Seldom | | | | |
| Respect | | | | |

Dinora ABDULLAJONOVA

LEARN THE IDIOMS

| Idiom | Definition |
|--------------------------------------|--|
| Everything but the kitchen sink. | Almost everything has been included. |
| To put a sock in it. | To tell someone noisy to be quite. |
| To have a cast iron stomach. | To have no problems eating or drinking anything. |
| Use your loaf. | One must go deep into the question |
| Fingers licking good. | Tasty, delicious. |
| The lights are on but nobody's home. | Used to describe a stupid person. |

Exercises. Full fill the gaps.


1. My mother makes the best cake! Her *fingers licking good*.
2. She really has no clue...
3. I think I would be sick if I ate all that food, but Jamshid seems to...
4. Guys! I am in terrible help me ...! I know you can solve this problem!
5. Mubina was trying so hard to get the question right, she was throwing out ...!
6. Akbar was yelling while I was studying so I told him ...

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

FUNNY VOCABULARY

Write the words from the mix letters. The capital letters will help you.

- nePppleia – pineapple, Lifa – ..., uSjbec – ..., Tste – ...,
xmEaniatoin – ..., ssaP – ..., pDlimoa – ..., aerpP – ...,
sMuemu – ..., cReption – ..., okoB – ..., yEssa – ...,
urTo – ..., oxbePcnli – ..., cCaho – ..., idGue – ...,
priT – ..., ouTtris – ..., reiH – ..., ggGaelu – ...,
erTmalni – ..., Plepa – ...



Ma'mura G'ULOMOVA

Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Inson hayotida eng ko'p foyda beradigan narsa – umid.

VELTMAN

Tong yulduzi

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!»

tanloviga



TABIATNI ASRAYLIK, DO'STLAR!

Yashash uchun yaratdi bizlarga imkon, Qadriga yetaylik har bitta inson. Xiyonat qilmaylik unga hech qachon, Keling, tabiatni asraylik, do'stlar.

Har bitta boylikning nihoyasi bor, Qadriga yetishni unutmang zinhor. Isrof etilmasin, bizga yor ular, Keling, tabiatni asraylik, do'stlar.

Tabiiy gazimiz-u, zilol suvimiz, Elektr tokini saqlash burchimiz. Kelajak avlodlar uchun hammamiz, Keling, tabiatni asraylik, do'stlar!

Mohinur DEHQONOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

ONA YURTNING DILBANDI

Uzoq Surxon elida, Yashar edi bir bola. Uning qalbi juda shod, Bolaning ismi Shamshod.



Hayotda doim quvnoq, Demanglar uni qo'rqqoq. Asl Surxon farzandi, Ona yurtning dilbandi.

Chori MUHAMMADIYEV, Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi 101-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTONIM

O'zbekistonim, bog'laring chaman, Sening bag'ringda yayrab o'saman. Do'stlarim bilan sho'x-shodon kulib, So'lim bag'ringda quvnaq yayrayman.



SURXON

Shu Vatan bizlarga borin tutadi, Yuksak marralar va zafar kutadi. Shoira qizlari ash'or bitadi, Otamning qalbiddek chinor Surxonim.

Abbos FAYZULLAYEV, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

SOG'INCH

Erta tong. Sayroqi qushlarning yoqimli ovozi uzoq-uzoqlardan eshitilmoqda. Butun borliqqa qalbni junbushga keltiruvchi ifor taralmoqda. Ayni shu faslda bolaligingga qaytgim keladi. Chunki u paytda aziz insonim – onajonim hayot edi-da.

Ularning eng yaxshi ko'rgan fasli bahor edi. Sakkiz farzandni ulg'aytirgan onamning bo'sh o'tirganini, ichki kechinmalarini oshkor qilganini eslay olmayman. Onajonim uzoq yil o'qituvchilik qilgan bo'lsa-da, tabiatni, gullarni sevardi. Uyimizdagi gullarga, ko'chamizdagi tartib va ozodalikka hammaning havasi kelardi. Tabiatan bir gapirib, o'n kuladigan quvnoq ayol edi. Baxtni – sevgan kasbida, oilasida, farzandlarida deb bilardi. Mehnatdan rohat topardi. Afsuski, bedavo dard onamni 46 yoshida olib ketdi.

Bugun o'zim ham baxtli oila bekasiman. 36 yildan buyon boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqdaman. Ba'zan mehribonimni sog'inib, yig'lagim keladi. Mushtipar, beozor, dilkash, bolaparvar onajonimning ko'rgani-kechirgani faqat mehnat bo'lganini his qilaman.

Onam bilan suhbat qurolmasligim, quvonchlariga sherik bo'lolmaganim, mehnat-u zahmatlari uchun tashakkur aytolmaganim – katta armonim.

Tilagim shuki, dunyodagi barcha onalarning umri uzun bo'lsin. Farzandlar esa armon nima ekanligini bilmay yashasinlar.



Dilorom Iminjonova: – Shogirdlarim bilan faxrlanaman.

Kulib turgan yuzingizni sog'indim, Mehr ila boqib turgan ko'zingizni sog'indim. Qalbga orom so'zlaringiz sog'indim, Sog'indim onajon, sog'indim ona.

O'zingizga o'xshaganmiz beshta qizingiz, Ustoz bo'lib bosib o'tdik bizlar izingiz. Taskin toping, oqladik bergan tuzingiz, Sog'indim onajon, sog'indim ona.

Uy to'rida boqib turar suratingiz, Intilganim, izlaganim siyratingiz. Menga meros boshimga toj ziynatingiz, Sog'indim onajon, sog'indim ona.

Dilorom IMINJONOVA, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Bolajonim, hech umid degan narsa haqida jiddiroq o'ylab ko'rganmisan? Aslida inson zoti borki, kattadir, kichikdir bu haqda, albatta, o'ylashi kerak. Bekorga bu dunyoni umidli dunyo deyishmaydi. Umid o'zi nima? Oddiygina qilib aytganda, ertangi kun. Bugungi kun kechagi kunning umidi. Ertangi kun esa bugungi kunning umidi. Buni hayotga ko'chiradigan bo'lsak, jonim bolam, biz bobojon va buvijonlarning dadang bilan oyingni umid bilan ulg'aytirdik, kosibkorlik qildik, boshlarini qovushtirdik, endi bo'lsa ularning umidi, ertangi kuni sizlar bo'lib qoldinglar. Fikr-o'ylari sizda. Ha, shunaqa. Bu hayot qonuni. Umid insonlargagina ato etilgan ulug' ne'matdir. Odamning boshqa jonzotlardan farqi ham shunda. Umid ko'zga ko'rinmaydi. Lekin insonlarni qo'ldan tutib oldinga yetaklayveradi. «Menga ishon», «Noumid bo'lma», «Noumid shaytondir», deb sen bilan xuddi odamdek gaplashadi.

Umidsizlikdan Xudo asrasin. Xo'sh, umidsizlik nima? Bir og'iz so'z bilan aytganda – fojia. Yo'qlik degani. Tasavvur qil, dengizda kema suzib boryapti. Uni manziliga eltayotgan narsa qudratli parragidir. Bor umid o'shandan. Tasavvur qil, parrak ishdan chiqdi. Kema dengiz to'lqinlari oldida bamisoli pista

po'chog'idek gap. Uzoqqa bormay, halokatga uchraydi. Umid ana shunaqa, parrakka o'xshagan narsadir. Odam



Erkin MALIK, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist

UMIDINGNI SO'NDIRMA

undan ajraldimi, tamom, ertangi kunga ishonmaydi. Yashashning qizig'i qolmaydi.

Shuning uchun ham bemorni ko'rgani borgan odam, «Xudo xohlasa, yaxshi bo'lib ketasiz», deb unda umid chirog'ini yoqadi. Do'xtirlar ham, tabiblar ham o'z mijozlariga, «Umidsizlanmang, unda bizning dori-darmonlarimizning foydasi bo'lmaydi», deyishadi. Ko'rdingmi, bolam, umid odamni tutib turuvchi bir ustun. Odam hayotda boshi berk ko'chalarga kirib qolishi mumkin. Lekin umid uni o'sha ko'chalardan olib chiqadi. Hayotda hamisha umid bilan yasha, ey mening umidli nabiram.

(Davomi bor)

CHEMPIONLAR YURTGA QAYTDI

Gazetamizning o'tgan sonida Tailand poytaxti Bangkok shahrida boks bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tgani haqida xabar bergandik. Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida ushbu nufuzli sport bayramida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytgan bokschilarimizni kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.



ko'rsatlayotgan yuksak e'tibor yotgani haqida to'liqlanib so'zlandi.

Aytish kerakki, musobaqada bokschilarimiz zimmasiga yuklatilgan vazifani a'lo darajada uddaladi. Yakunda 4 nafar bokschimiz kumush, 3 nafari esa bronza medali bilan taqdirlandi. E'tiborlisi, o'zbek qizlari orasida 60 kg vaznda Mahliyo Rahimova yarim finalga qadar bo'lgan yo'lni muvaffaqiyatli bosib o'tib, shohsupaning uchinchi pog'onasiga ko'tarildi. Terma jamoamiz hisobiga yagona oltin medalni 56 kg vaznda Abdumalik Xalokov taqdim etdi. U hal qiluvchi bahsda Kristian Laurentni mag'lub etib, Osiyo chempioni degan sharaflil nomga sazovor bo'ldi.

«Paxtakor» klubining 2005-yilda tug'ilgan tarbiyalanuvchilari Qozog'istonning Oqto'ba hokimi kubogida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

YOSH PAXTAKORCHILAR ishonchli odimlamoqda



Futbolchilarimiz musobaqaning 2-turida Chimbkentning «BO'SM-7» klubiga qarshi maydonga tushib, yirik 3:0 hisobidagi g'alabani qo'lga kiritdi. Gollarga Daler Tuxsanov, Ravshan Abdumannonov va Temur Odilovlar mualliflik qildi.

Yosh paxtakorlar 3-turda oqto'balik tengqurlariga qarshi bahs olib boradi.

S. TURSINOV

«ENERGETIK KOKTEYL» quvvat bag'ishlaydimi?

Bugun do'kon peshtaxtalarini bezab turgan quvvat oshiruvchi kokteyllar ko'pchilikning mehrini qozongani rost. Ammo bu ichimlik chindan ham inson organizmiga reklanalarda aytilayotgandek foydalimi? Bu gal sizlar bilan ana shu mavzuda suhbatlashamiz. Avvalo, ushbu ichimlik haqida qisqacha ma'lumot bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

TARIXGA NAZAR

1938-yilda inglizlik Smit-Klayn sportchilar uchun «Lukoza» deb nomlangan qo'shimcha quvvat beruvchi ichimlik ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Yaponiyaga esa bu mahsulot 1962-yilda kirib keladi. 1984-yil Gonkongga xizmat safari chog'ida bu ichimlikdan totib ko'rgan avstriyalik tadbirkor Ditrax Mateshets o'zi Yevropada shunday mahsulot ishlab chiqarishni boshlaydi. Dunyo bo'ylab ayni damda ko'plab energetik ichimliklar mavjud.

TIBBIYOT NIMA DEYDI?

Energetik ichimliklar haqida Yunusobod tumanidagi 51-oilaviy poliklinika shifokori Umida opa Malikova bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Afsuski, bu kokteyllar o'smir yoshdagilarning jismoniy quvvatiga, ongiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, undagi kofein moddasini olaylik. Uning 100 milligrammi insonda aqliy faoliyatni kuchaytirishi, 238 milligramm miqdori yurak-qon tomir chidamliligini oshirishini hisobga olsak, ayrim energetik ichimliklarda bu miqdor 120 dan 428 milligrammgacha bo'ladi.

Taurin – mushak to'qimalarida to'planadigan aminokislota bo'lib, u quvvatbaxsh ichimlikda 400–1000 mg miqdorgacha bo'ladi. U yurak mushaklari ishlashini faollashtirib, boshqa komponentlar bilan uyg'unlashganda, asab tizimining izdan chiqishiga olib ke-



Fran-siya, Daniya va Norvegiya kabi mamlakatlarda energetik kokteyllarni sotish taqiqlangan.



2010-yilning dekabrda tarkibida kofein bo'lgan alkogolli energetik ichimliklar AQSHning barcha hududida sotuvdan to'liq olib tashlandi.

Litvada 2015-yilda energetik ichimliklarni voyaga yetmaganlarga sotish taqiqlandi.

ladi. Ichimlikdagi moddalar organizmni jismoniy va aqliy zo'riqish bilan ishlashga majbur etadi. Oqibatda, tana sun'iy ravishda harakatlanadi. Bu kabi kokteyllar hech qanday quvvatga ega emas, aksincha, tanadagi zaxira resurslarni «uyg'otadi», xolos. Afsuski, ayrim ota-onalar farzandlariga energetik ichimliklarning zararini bilmay, xarid qilishadi.

KEYINGI PUSHAYMON...

Mirisroil MIRKAMOLOV, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi AFIDUMning 8-sinf o'quvchisi:

– Darsdan so'ng ayrim do'stlarim do'kondan turli energetik ichimliklarni sotib olishadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya fani bo'ladigan kunlari ushbu ichimlikni ko'p iste'mol qili-

shadi. Birinchidan, «quvvat kokteyllari» qimmat, ikkinchidan esa u sog'lig'imizga katta zarar yetkazadi. Keyinchalik afsuslangandan nima hojat? Undan ko'ra, o'rtoqlarimning o'z kuchiga ishonishlarini istardim.

Aziz bolajonlar, bu ichimlikning zarari haqida oz bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'ldingiz. Endi o'ylab ko'ring, sizga sun'iy ichimliklar afzalmi yoki salomatligingiz? Biz mavzuga yana qaytamiz, siz esa bu haqda chuqur mushohada yuritib, to'g'ri qaror qabul qilishingizni istardik.

Ozoda TURSUNBOYEVA

TARG'IBOTCHI KITOBXON

Yaqinda maktabimizda «Targ'ibotchi kitobxon» nomli tanlov bo'lib o'tdi. Unda 5-10-sinf o'quvchilari she'r o'qish, asardan parcha, sahna ko'rinishi shartlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.



Yakunda 5-«A» sinf o'quvchisi Madina Saparova 1-, 7-«B» sinf o'quvchisi Gulsanam Usmonova 2-, Sug'diyona Abdujalilova va Mushtariy Mamatqulovlar esa 3-o'ringa loyiq deb topildi. G'oliblar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shahrizoda ABDUSALOMOVA, Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

Assalomu alaykum, qadri «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Sizlar bilan maktub orqali g'oyibona diyorlashish maqsadida qo'linga qalam oldim. Sevinli nashrimizda maktabimiz o'quvchilarining maqolalari, she'rlari chop etilayotganidan nihoyatda xursandmiz.

MOHICHEHRADAN IBRAT OLAMIZ

Gazetaning har bir sonidan olam-olam taassurot olamiz. Bu gal sizlarga sinfimizdagi dugonam Mohichehra Atabekova haqida maktub yo'llayman. U maktabdagi barcha tengdoshlariga o'mak. Dugonamning husnixati nihoyatda chiroyli, qolaversa, matnlarni ifodali, ta'sirchan qilib o'qiydi.

Hech kimni xafa qilmaydi, baland ovozda gapirmaydi. Biror tushunmagan narsani so'rasangiz, asta, dona-dona qilib tushuntiradi. Mohichehra barcha fanlardan faqat a'lo baholarga o'qiydi. U kitob mutolaa qilishni



juda yaxshi ko'radi. Dugonam yaqinda o'tkazilgan «Kitob – mening do'stimsan» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi. Biz undan ibrat olishga harakat qilamiz.

Mohichehra bo'sh paytlarida she'rlar ham yozib turadi. Sinfimizda unga o'xshagan o'quvchilar juda ko'p. Ular haqida esa keyingi maktublarning hikoya qilaman.

Ozoda HOJIBOYEVA, Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

FOYDALI MASLAHATLAR

1 Agar mazali va yumshoq pyure tayyorlashni istasangiz, kartoshkaning sariq turidan foydalaning. Qora va qizil kartoshkaning pyuresi yopishqoq va mayin ezilmaydi.

2 Biskvit xamirini tez pishirib olmasangiz, orasiga havo kirib, ta'mi buziladi.

3 Pirogning pishganligini aniqlash uchun uning orasiga yog'och tayoqcha suqib ko'ring, quruq bo'lsa, u yetilgan hisoblanadi.



4 Xamir orasiga mayiz qo'shmoqchi bo'lsangiz, avval uni yuvib, so'ngra unga belab oling. Shunda u xamirga tekis yoyiladi.

5 Pirogni yaxshi ko'tarilishini istasangiz, dastlabki 15 daqiqa davomida gaz pechi eshigini ochmang.

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! «AJDODLAR YODI» CHAYNVORDI

1. Mamlakatimizda ilk «Xotira maydoni» tashkil etilgan shahar. 2. O'rta asrda mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan xalq harakati rahbari. 3. Voqealarga mansub solnoma manba. 4. Atoqli o'zbek tarixchi olimi, «Amir Temur» romani muallifi. 5. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish. 6. Taniqli o'zbek geolog olimi, akademik. 7. O'z ahd-paymonini muqaddas tutish. 8. O'zbekiston xalq yozuvchisi, akademik ijodkor. 9. Insonning his-tuyg'u va kechinmalari, qalb. 10. Iltifot, marhamat. 11. Ajdodlarimiz jasoratidan yuzaga keladigan g'ururlanish, mamnunlik hissi. 12. Atoqli kino va teatr san'atkori, O'zbekiston xalq artisti. 13. G'afur G'ulomning:

«G'alaba amri-la, mag'lub nemisning, Generali qo'l qo'ydi, Uch sekund faqat... Shu mal'un imzoda odamlar o'qir, Million yil fashistning umriga la'nat»...

satrlari bitilgan falsafiy she'ri. 14. Erksevar xalqlar orzusi. 15. Taniqli o'zbek ko'z kasalliklari shifokori. 16. Meros olish huquqligiga ega bo'lgan shaxs, merosxo'r. 17. Harbiy xizmatda birga

xizmat qilgan kishilar. 18. O'zbekiston xalq shoiri, «Kafansiz ko'milganlar» avtobiografik qissasi, «Tirik ruhlar» roman-xronikasi asarlari muallifi. 19. Ota-bobodan qolib kelayotgan rasm-rusum, udum. 20. Yuqsak minnatdorlik ifodasi. 21. Osoyishtalik, insonlar qadrini oshirish borasida ahamiyat kasb etayotgan, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy hudud. 22. Izzat-hurmat, e'zoz-e'tibor hissi. 23. Ona Vatanimiz Istiqloq yillarida ro'yobga chiqayotgan azaliy an'analarimiz majmui. 24. Ulug' hurmatga sazovor, mo'tabar inson. 25. Yoshi ulug', ko'pni ko'rgan uddaburon inson. 26. Ayrim kishilarga namunali xizmatlari uchun belgilangan tartib asosida amalga oshiriladigan yengillik. 27. Kimyogar olimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, «Oybegim mening» xotira asari muallifining ismi. 28. Kimsaga baxt-omad tilash. 29. Iftixor, faxr tuyg'usi. 30. Atoqli ijod sohibi, olim, davlat va jamoat arbobi, birinchi o'zbek professori, qatag'on qurboni.

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV

Pazanda qizga! QARSILDOQ PECHENYELAR

Aziz kichik bekalar! Sizlarga bugun ajoyib pechenyelar tayyorlashni o'rgatamiz. Bu shirinlik, albatta, oila a'zolaringizga manzur bo'ladi.

Kerakli masalliqlar: 500 gr sariyog', 4 stakan un, 1 osh qoshiq qavartma, 1 stakan sut, qand upasi.

Tayyorlanishi: 500 gr sariyog' 4 stakan un bilan uqalanadi. Ustiga 1 oshqoshiq qavartma solib aralashtiriladi. So'ng, 1 stakan sut solib, yumshoq xamir qoriladi. 1 soatga muzlatgichga qo'yilgach, 1 sm qalinlikda yoyib, shakli beruvchi qoliplarda kesib chiqiladi. Shundan keyin o'rta olovda 25 daqiqa davomida pishiriladi. Issiq holatida ustiga quyuqroq qilib qand upasi sepi chiqiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

7-may 2018

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Laziz TANGRIYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSINOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 65047
Buyurtma – V 1569

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08